

"Hamid Olimjon baxt va shodlik kuychisi"

Rajapova Farida Normatovna

Xorazm viloyati Gurlan tumani

19-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining


ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu goʻzal satrlar ila boshlanuvchi goʻzal sheʼr sakson yildan oshibdiki, xalqimiz orasida tillardan tushmay, dillardan oʻchmay kelyapti. Mana shunday hayotbaxsh, umrboqiy sheʼrlari bilan qalblarga yoshlik zavqi, baxt sururini ulasha olgan Hamid Olimjon tavalludiga 111-yil toʻldi. Shunday qilib, ushbu maqolada Hamid Olimjon haqida bayon qilingan.

Kalit soʻzlar: dramaturg, tarjimon, adabiyotshunos, gazeta, ilmiy tadqiqot.

Аннотация: Красивое стихотворение, которое начинается с этих прекрасных строк, вот уже более восьмидесяти лет сходит с уст и сердец нашего народа. 111 лет со дня рождения Хамида Олимжона, сумевшего разделить радость юности и счастья своими животворными и вечными стихами. Таким образом, в этой статье описывается Хамид Олимджон.

Ключевые слова: драматург, переводчик, литературный критик, газета, научное исследование.




Annotation: The beautiful poem, which begins with these beautiful lines, has been coming from our people's tongues and hearts for more than eighty years. The 111th anniversary of the birth of Hamid Olimjon, who was able to share the joy of youth and happiness with his life-giving and eternal poems. Thus, this article describes Hamid Olimjon.

Key words: playwright, translator, literary critic, newspaper, scientific research.

O‘zbek xalqining atoqli farzandi – dilbar shoir, dramaturg, yirik olim va tanqidchi Hamid Olimjon o‘zidan o‘lmas meros qoldirgan. U o‘zbek she‘riyatida jo‘shqin lirizmga asoslangan she‘riyat maktabini yaratgan shoir. Iste‘dodli shoir, dramaturg, tarjimon, adabiyotshunos va folklorshunos olim, davlat va jamoat arbobi Hamid Olimjon 1909 yil 12 dekabrda Jizzax shahrida dunyoga keldi. Narimonov nomidagi boshlang‘ich maktabni tugatgach, Samarqand pedagogika bilim yurtida (1923-1926), O‘zbek Pedakademiyasida (1926-1931) o‘qidi. Hamid Olimjon talabalik yillaridayoq she‘r yozdi. Uning asarlari 1926 yildan «Zarafshon» gazetasida chiqq boshladi. 1927 yilda shoir mazkur ro‘znoma muharririyatiga ishga o‘tdi. Hamid Olimjonning «Ko‘klam» nomli ilk she‘riy to‘plami 1929 yilda bosilib chiqdi. Shundan so‘ng «Olov sochlar» (1931), «O‘lim yovga» (1932), «Poyga» (1932) kabi she‘riy to‘plamlari nashr etildi.

O‘zbekiston Fanlar akademiyasining muxbir a‘zosi (1943) Hamid Olimjon o‘zbek adabiyotining dolzarb masalalari bo‘yicha qator ilmiy-tanqidiy asarlar yaratdi. U A.Pushkin, L.Tolstoy, M.Gorkiy, V.Mayakovskiy, A.Serafimovich, T.Shevchenko, M.Lermontov, N.Ostrovskiy, A.Korneychuk asarlarini tarjima qildi va ular haqida maqolalar yozdi.



O‘zbek xalq og‘zaki ijodining ajoyib durdona asari «Alpomish» dostoni birinchi marta Hamid Olimjon tomonidan nashrga tayyorlanib, so‘z boshi bilan (1938) chop etildi. U Alisher Navoiyning 500 yilligini o‘tkazish yubileyi komitetining a‘zosi sifatida ulug‘ shoir hayoti va ijodi yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib bordi. 1939 yildan to 1944 yilda avtomobil halokatiga uchrab, dunyodan ko‘z yumganiga qadar O‘zbekiston Yozuvchilari uyushmasiga rahbarlik qildi. Shoir o‘zining «Daryo kechasi» (1936), «Chirchiq sohillarida» (1937), «O‘lka» (1939), «Baxt» (1940) to‘plamlari, «Ikki qizning hikoyasi» (1935-1937), «Oygul bilan Baxtiyor» (1937), «Zaynab va Omon» (1938), «Semurg‘» (1939) dostonlari bilan o‘z davrining ilg‘or g‘oyalarini tarannum etdi.


Ikkinchi jahon urushining olovli yillarida uning «Muqanna» nomli she‘riy dramasi yaratildiki, u hanuzgacha dramaturgiyamizning gultoji bo‘lib kelayotir. Iste‘dodli shoir Hamid Olimjonning ko‘pchilik asarlari qardosh xalqlar va xorijiy xalqlar tillariga tarjima qilingan.

BO‘LSAM

Na bo‘lg‘ay bir nafas men ham yonog‘ing uzra xol bo‘lsam,

Labing yaprog‘idan tomganki go‘yo qatra bol bo‘lsam.

Butog‘ingga qo‘nib bulbul kabi xonish qilib tunlar,



O‘pib g‘unchangni ochmoqliqqa tong chog‘i shamol bo‘lsam.

Bo‘yingni tarqatib olamni qilsam mastu mustag‘riq,

O‘zimning san‘atimga so‘ng o‘zim hayratda lol bo‘lsam.

Sening birla qolib bu mastu lol olamda men yolg‘iz,

O‘zimni ham topolmay, mayliga, oxir xayol bo‘lsam.

Agar bog‘ingda gul bo‘lmoq mening-chun noravo bo‘lsa —

Ki, ming bor roziman qasringga hattokim duvol bo‘lsam.

Boshim hech chiqmasa mayli malomat birla bo‘htondin,

Raqiblar rashkiga ko‘krak keray, mayli, kamol bo‘lsam.

Kezib sahroyu vodiylar yetishsam bir visolingga,

Fido jonimni qildim yo‘lingga, mayli, uvol bo‘lsam.


(1943 yil)

ENG GULLAGAN YOSHLIK ChOG‘IMDA...

Eng gullagan yoshlik chog‘imda,

Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda.

Shunda ko‘rdi ko‘zim bahorni,



Shunda qalbim tanidi yorni.

Qushlar sayrar jonimga payvast,

Men sevgining bo‘yi bilan mast.

Kuni bilan dalada qoldim,

Lolazorlar ichra yo‘qoldim.

Quchoq-quchoq gullar terganim

Va keltirib senga berganim

Kechagiday hamon esimda,

Har soniya, har on esimda.

Shundan beri tilimda oting,


Shundan beri dilimda oting.

Eng gullagan yoshlik chog‘imda,

Sen ochilding ko‘ngil bog‘imda.

(1937 yil)


«Hamid Olimjon tug‘ma va nodir talant edi. Uning qonida, o‘zligida, ko‘z qorachig‘ida, to‘qson ikki tomirida tug‘ma bir zukkolik, shoirona bir sajiya, bilgichlik, burrolik, nurbaxshlik, yorqin qalb va adab ayon» (Mirtemir). O‘zbek xalqi uchun suronli va fojeali davrda yashab ijod qilgan, ta’bir joiz bo‘lsa o‘zbek adabiyoti beshigini tebratgan ulug‘ siymolardan biri Hamid Olimjon haqida juda



ko‘plab ta’rif keltirishimiz mumkin. Adibning asarlari yillarki o‘quvchilar qalbini yoritib keladi. Jizzax davlat pedagogika instituti O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti tomonidan Hamid Olimjonning 110 yilligiga bag‘ishlanib tashkil etilgan amaliy anjumanda shu haqda so‘z bordi.

“ Ta’kidlash joiz xalq sevgisi, azaliy o‘zbekona qadriyatlarga sadoqat Hamid Olimjon hayoti va ijodi uchun rahnamo kuch va ilhombaxsh qudrat bo‘lgan. Yuksak insoniy e’tiqod sohibi Hamid Olimjon Vatani va xalqining madaniy taraqqiyot yo‘lidan mardona odimlar bilan borish uchun astoydil ter to‘kdi. Uning asarlari hali-hamon o‘quvchilarga, ruhiy ozuqa, bo‘lib kuchberadi. U she’riyat va nasr, dramaturgiya va badiiy tarjima, tanqid va adabiyotshunoslik sohalarida samarali mehnat qildi. Bu sohalarning har birida o‘chmas iz qoldirdi. Uning ijodi o‘zbek xalqining ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida ro‘y bergan siljishni aks ettirdi. Ijtimoiy faoliyat ham, adabiy ijod ham Hamid Olimjon uchun faol harakat maydoni bo‘ldi. U ijodkor sifatida ikki she’riy drama, 200 ga yaqin she’r, 4 ta ballada, 9 ta doston, o‘nlab publitsistik va adabiy-tanqidiy maqolalar yaratdi. Ijodiy uyushma rahbari sifatida esa qanchadan-qancha shoir va yozuvchilarning o‘sib shakllanishiga, qanchadan-qancha asarlarning yaratilishiga sababchi bo‘ldi. Nafaqat 30-yillarda balki 40-yillarda bitilgan, hatto 50-yillarda maydonga kelgan ayrim asarlar ham uning daldasi bilan yaratilgan” –deydi ” O‘zbek tili adabiyoti kafedrası “ dotsenti Usmonjon Qosimov

Shoir bor-yo‘g‘i 35 yil umr ko‘rdi. Ammo shu qisqa umri davomida hamidona barkamol she’rlardan tashqari, “Muqanna” she’riy tragediyasini yaratdi, o‘zbek xalqining buyuk eposi – “Alpomish” dostonini tadqiq etib, nashr qildi; Navoiy aksar asarlarining ruschaga so‘zma-so‘z, “Farhod va Shirin”, “Layli va



Majnun” dostonlarining, shuningdek, “Alpomish”ning esa she’riy tarjima qilinishida tashabbuskor bo‘ldi. Anjumanda so‘zga chiqqanlar uning asarlaridan parchalar keltirib, yig‘ilganlarga uning yaratilish tarixi va shior hayotining eng qizg‘in pallari haqida hikoya qilishdi. Betakror hassos qalb sohibi, otashin shoir, baxt va shodlik kuychisi ijodiga bag‘ishlangan kechani oliygoh ijodkor yoshlari tomonidan tayyorlangan badiiy chiqishlar yakunladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Karimov N. Hamid Olimjon. Toshkent, „Yosh gvardiya“, 1990.

Karimov N. Hamid Olimjonning poetik mahorati. Toshkent. „Fan“, 1964.

Mamajonov S. Shoir dunyosi. Toshkent. G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1972.

Karimov N. va boshqalar. 20 asr o‘zbek adabiyoti tarixi. -T.: „O‘qituvchi“, 1999.

Abdurahonov A. Alangaga aylangan uchqun. „Kamalak“ adabiy-tanqidiy ilmiy to‘plamda. -T. 1990.

Azimov S. Hamid Olimjon abadiyati. T., 1967;

Sen elimning yuragida yashaysan [H.Olimjon haqidaxotiralar], T., 1973;

Mamajonov S, Shoir dunyosi, T., 1974;